

**TA'LIMDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ASOSIY  
TAMOYILLARI**

*Shoyusupova Xilola Xusnitdinovna*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, katta o'tuvchi*

**Annotasiya:** *Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Maqola shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shaklidan foydalanish tamoyillari va qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanishda rioya etishi kerak bo'lgan bir qator shartlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *O'yinli texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik texnologiyalar, pedagog-talaba, ijodiy fikrlash, talaba-talabalar jamoasi, faol metodlar.*

Bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Texnik fanlarni olib boruvchi kafedralarda o'qitiladigan fanlarning ma'ruza darslarini samarali tashkil etishda pedagogik texnologiyaning barcha turlarini qo'llash imkoni mavjud emas. Bunga ma'ruza darslarida talabalar soni ko'pligi, talabalar faqat tinglovchi bo'lib qolayotganliklarini sabab qilib ko'rsatish mumkin. O'yinli texnologiyalar, obrazli o'yinlarni tashkil etish vaqt talab etishi sababli ma'ruza darslarida samara bermaydi. Lekin har bir talaba o'z fazilatiga ega shaxs hisoblanganligi tufayli ularga nisbatan individual yondashish kerakligini taqozo etadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini

tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limdir. Bu turdagi ta'lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talabaga imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Pedagog ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilaran iborat:

- har bir talabani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
- talabani hurmat qilishi;
- talabaning ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
- talabaning xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir talabaga tolerant munosabatda bo'lishi;
- talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir talaba uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi;
- talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlariga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- talabalarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish;
- ta'lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o'tkazmaslik;
- alohida talabaning kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmaslik;

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

---

- bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, ta'lim jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;

➤ aniqlangan sabablar asosida talabaning sha'ni, g'ururiga ziyonetkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtiraolmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;

➤ ta'lim jarayonida har bir talaba uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish;

➤ har bir talabaga ta'lim olisha muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;

➤ talabaning qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabani ta'lim tizimigamoslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. Bu turagi ta'limda ma'ruza darslarini olib boruvchi pedagog fandan mummoli mavzular bo'yicha mustaqil mavzularni shakllantirib, talabalarga vazifa shaklida beradi. Talabalar vazifani bajarish davomida o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga bundan tashqari, adabiyotlar bilan ishlashga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishga, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishga xarakat qiladi. Talabalar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yonashishni, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o'z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Signallarni uzatish nazariyasi fanidan mustaqil ishlar mavzulari ishchi reja asosida berilgan. Ushbu fanni o'zlashtirish uchun mustaqil ishlar mavzulari

talabalarga potoklar, guruxlar ichida kichik guruxlarni tashkil etib, ularga variantlar sifatida beriladi. Xar bir kichik gurux o'z mavzusi ustida ishlab, ma'lumotlar yig'adi. Mustaqil ishlarni ximoya qilish ya'ni topshirish vaqtida talabalar o'zlarini qobiliyatlari, kreativ yondashishni va mavzuni innovasion xarakterini ko'rsatib beradilar.

Bunda pedagog tomonidan turli faol metodlarning qo'llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Xususan:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va b.

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovasion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. *Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 1(1), 252-256.

2. Ахмедов, Б. А. (2020). Математические модели оценки характеристик качества и надежности программного обеспечения. *EURASIAN EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION JOURNAL*, 3(10), 97-100.

3. Гулбоев, Н. А., Дуйсенов, Н. Э., Ахмедов, Б. А., & Рахманова, Г. С. (2020). Модели систем управления электрическими сетями. *Молодой ученый*, 22(312), 105-107.

4. Мухамедов, Ф. И., & Ахмедов, Б. А. (2020). Инновацион “Klaster mobile” иловаси. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 140- 145.